



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Ixomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	



O‘ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI

Junaydullayev Mels Asliddin o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
“Sport faoliyati” kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada jahon amaliyotida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotiga joriy etilayotgan raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari va yo‘nalishlari tadqiq etilib, ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: menejment, sport menejmenti, individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruvi, boshqaruv samaradorligi, tizimli boshqaruv, raqamli boshqaruv, boshqaruv transformatsiyasi.

Аннотация: В статье исследуются методы и направления использования цифровых образовательных технологий, внедряемых в практику управления системой подготовки индивидуальных спортсменов в мировой практике, и выявляются возможности их применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: менеджмент, спортивный менеджмент, управление системой подготовки индивидуальных спортсменов, эффективность управления, системное управление, цифровое управление, трансформация управления.

Abstract: The article studies the methods and directions of using digital educational technologies being introduced into the practice of managing the system for training individual athletes in the world experience, and identifies the possibilities of using them in the context of Uzbekistan.

Keywords: management, sports management, management of the system for training individual athletes, management efficiency, systematic management, digital management, management transformation.

KIRISH

Zamonaviy sport munosabatlari, jumladan, sport tizimida individual sportchilarning global darajadagi yuqori nufuzli tadbirlari va musobaqalarida samarali ishtirokini ta’minlashda sportchilarning faqatgina jismoniy tayyorgarligi emas, balki individual sportchining funksional, psixologik va aqliy-intellektual imkoniyatlaridan bir vaqtning o‘zida o‘zaro mutanosiblikda foydalanish va ularni o‘zaro muvofiqlashtirilgan tartibda rivojlantirishga bo‘lgan zaruriyat ortib bormoqda. Mazkur vaziyatning tobora global darajada individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotini takomillashtirishdagi ahamiyati ortib borishi sharoitida mazkur yo‘nalisdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati tobora kuchayib, O‘zbekiston sharoitida ham bu turdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Umumiy holatda aytish mumkinki, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish jarayonining o‘ziga xosligi mazkur amaliyotning ma’lum bir standartlar tizimiga muvofiqlashtirilgan holatda emas, balki har bir individual sportchining shaxsiy qobiliyatlari, genetik salohiyati, fiziologik va ruhiy jihatdan tayyorgarlik darajasi va tashqi muhit omillarining salbiy ta’sir doiralarini kamaytirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa turli iqtisodiy tizimlar, jumladan, bugungi O‘zbekiston sharoitida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega bo‘lgan boshqaruv amaliyotini shakllantirish imkonini beruvchi dinamik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish zaruriyatini oshiradi. Shu sababli biz bugungi kunda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotida keng foydalanilayotgan ilmiy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish asosida O‘zbekiston amaliyotini tubdan takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni lozim topdik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotda sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillari, shakllari, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, unga bag‘ishlangan ilmiy konsepsiyalar J. March,



P. Blau, Ch. Barnard, A. Etzioni, R.N. Lussiyer, E. Ekstin kabi uzoq xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topadi.

Yaqin xorijlik R.K. Xayrullin, A.N. Popov, V. Pudich, G.R. Latfullin, S.A. Shulmin, S.S. Filippov kabi olimlarning ilmiy asarlarida sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda davlat ishtirokini optimallashtirish, ilg'or xorij tajribasidan mamlakat amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari, hududiy yondashuv asosida sport yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuvni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan K.Sh. Ziyadullayev, B. Maxmudov, M.R. Boltaboyev, Sh.F. Sultonov, A.A. Tillaxodjayev kabilar tomonidan O'zbekistonda sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotining shakllanishi va uni rivojlanishining milliy xususiyatlari, sohani takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, umumiy holatdagi sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishni amal qilishining iqtisodiy mexanizmi kabi masalalar o'rganilgan.

O'zbekistonda bozor iqtisodiy munosabatlarini liberallashtirish sharoitida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari, bu turdagi boshqaruvni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalari orqali individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga joriy qilish borasidagi ilmiy tadqiqotlar mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan kompleks va tizimli tartibda tadqiq etilmagan hisoblanadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tizimli-nazariy tahlil, mantiqiylik va tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, guruhlash, monografik tahlil usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli ta'lim texnologiyalarining turlari ularning individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotiga joriy etish imkoniyati va erishilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samaradorlik holatini avvaldan belgilash imkoniyatini beradi. Jumladan, iqtisodiy fandagi individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullarini tadqiq etish bo'yicha uzoq xorijlik J. Santomiyer[1], T. Senkal[2], H. Jiang[3], G.G. Salman[4], S. Akkaya[5], V. Chai[6], Ch. Li[7] kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari natijalarini tizimli tartibda tahlil qilish asosida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullarini ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish, ma'lumotlarga asoslangan tahlil, onlayn ta'lim va trening platformalari, virtual va qo'shimcha kengaytirilgan reallik, biomexanik tahlil, sun'iy intellektga asoslangan individuallashtirish hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan boshqaruv usullari bir-biridan o'zaro farqlanishi aniqlashga erishdik.

O'tkazilgan tadqiqotlarimiz hisobiga individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullarini quyidagi tartibda izohlash imkonini berdi:

Ma'lumotlarni yig'ish va monitoring usuli bugungi kunda asosan sportchining fiziologik jihatdan holatini sportchi kiyimi va uning tanasiga o'rnatiladigan turli sensor vositalari (Wearable) asosida uning yurak urishi chastotasi, jismoniy harakat faolligi hamda kislorod iste'molini muntazam ravishda nazorat qilib borish imkonini beruvchi raqamli ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda mazkur raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanilishi hisobiga tizim boshqaruvida nazorat, aniqlik va samaradorlik yo'nalishlarida an'anaviy boshqaruvga nisbatan yuqori natijaga erishish imkoniyatiga erishilib, ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirib o'tilgan (1-jadval).

1-jadval
Sportchilar tayyorlashda sensor (Wearable) monitoring afzalliklari¹

№	Ko'rsatkichlar	An'anaviy ta'lim usullari	Raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim usuli
1	Nazorat	Ma'lum muddat oralig'ida nazorat qilinadi	Nazorat muntazmligini ta'minlanadi
2	Aniqlik	Ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish aniqligi o'rta darajada	Ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish aniqligi yuqori darajada
3	Samaradorlik	Mazkur yo'nalishdagi samaradorlik maksimal qiymati 65 foizga	Mazkur yo'nalishdagi samaradorlik 90 foizgacha ortadi

Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ma'lumotlarga asoslangan tahlil usuli amal qilishida Big Data ma'lumotlar bazasi va ushbu ma'lumotlar bazasiga turli avtomatlashtirilgan analitik-tahliliy raqamli dasturlarga asoslangan platformalarni integratsiyalashuvini

¹ Muallif tomonidan tuzilgan



ta'minlash orqali sportchining ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilinib, unga nisbatan belgilangan jismoniy va taktik tayyorgarlik mashg'ulotlari bo'yicha yuklamalarni optimallashtirishda individual rejalarini ishlab chiqish hisobiga samaradorlikka erishilishini ta'minlaydi;

Onlayn ta'lim va trening platformalari individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda LMS (Learning Management System) raqamli texnologiyalarini qo'llash orqali sportchi uchun bajarilishi kerak bo'lgan jismoniy mashg'ulotlar rejasini taqdim etishi, video yozuvlarini shakllantirish orqali sportchi harakatlarini tahlil qilish va masofadan turib sportchining har qanday tayyorgarlik mashg'ulotlarini bajarilishini boshqarilishini ta'minlashi kerak bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning mazkur usuli "Covid-19" pandemiyasi davrida keng ommalashgan bo'lsa, postpandemiya sharoitida barqaror rivojlanish trendiga ega bo'lib kelmoqda;

Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda VR/AR raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyotining tobora rivojlanishi natijasida virtual va qo'shimcha kengaytirilgan reallik usuli shakllanib, mazkur usulda sportchini musobaqalarga tayyorlashda musobaqa o'tkazish vaqtidagi muhit sharoitini simulyatsiya qilib, texnik harakatlarni avvaldan modellashtirish imkoniyatiga erishiladi. Shuni ham aytish kerakki, mazkur usuldan individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda sportchining reaksiya tezligini oshirish bilan birgalikda, uning turli psixologik bosimlarga nisbatan immunitetini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi;

Biomexanik tahlil usulini individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotida qo'llanilishida Motion Capture, ya'ni sportchining harakatlarini suratga olish raqamli texnologiyasidan foydalanish asosida sportchi yo'l qo'ygan texnik jihatdan xato va kamchiliklarni aniqlash orqali ular ustida ishlab, uning harakati samaradorligini oshirishga erishiladi;


Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda sun'iy intellektga (AI) asoslangan individuallashtirish usulidan foydalanish amaliyotida AI algoritmlari asosida sportchining individual shakldagi jismoniy, ruhiy, fiziologik, biomexanik va taktik salohiyatiga mos keladigan sport tayyorgarligi mashg'ulotlari rejasini avtomatik tartibda ishlab chiqish va uni belgilangan muddatlar davomida takomillashtirib borilishini sportchining qayta tiklanish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari asosida amalga oshirishi hamda ishlab chiqilgan sportchining individuallashtirilgan dasturiga muvofiq erishilishi mumkin bo'lgan natijalarni avvaldan prognozlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi hisobiga an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval
Sportchilar tayyorlashda AI-individuallashtirish afzalliklari²

No	Ko'rsatkichlar	An'anaviy ta'lim usullari	Raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim usuli
1	Rejalashtirish imkoniyati	Sportchining yoshi, jinsi va og'irligi toifasidan kelib chiqib umumiy rejalashtiriladi	Sportchining individual jihatlaridan kelib chiqib shaxsiy mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqiladi
2	Aniqlik darajasi	Belgilangan umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqib aniqlik 70 foizga teng bo'ladi	Individual imkoniyatlarga asoslanilganligi sababli aniqlik 95 foizga teng bo'ladi
3	Samaradorlik darajasi	O'rta darajadagi samaradorlikka erishiladi	Samaradorlikka erishish imkoniyati sezilarli darajada yuqori hisoblanadi

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, global sport sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari bugungi kunda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari sun'iy intellekt (AI) tahliliga asoslangan raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga sportchilarni tayyorlash yuklamalarini boshqarish, sportchilarni tayyorlash bo'yicha yangi malakalarni o'zlashtirish, yaxlit holatdagi sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish yo'nalishlari bilan birgalikda, sun'iy intellekt (AI) tahliliga asoslangan ta'lim texnologiyalari orqali tayyorlanayotgan sportchilar soni bo'yicha rivojlanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada ortib borayotganligi aniqlangan (1-rasm).

2 Muallif tomonidan tuzilgan



1-rasm. Sportchilarni tayyorlashda AI texnologiyalari: global tendensiyalar qiyosi (% , 2024–2025) [8]

Raqamli texnologiyalarga asoslangan boshqaruv mexanizmini individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotida qo'llanilishi hisobiga ushbu jarayon tarkibiy jihatdan ma'lumotlarni yig'ish, yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirilishi yuzasidan nazorat va monitoring vositalarini qo'llash kabi bosqichlardan tashkil topib, ushbu jarayonni quyidagi (1) iqtisodiy model asosida izohlash imkonini beradi:

$$SB_{RT} = M_{Data} \rightarrow T_{Data\ Analysis} \rightarrow Q_{Decision} \rightarrow N\&M_{Feedback} \quad (1)$$

Bu yerda:

- individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning raqamli texnologiyalarga asoslangan usulining amaliyotda qo'llanilishi holati;
- individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati bo'yicha ma'lumotlar;
- individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati bo'yicha ma'lumotlar tahlili natijalari;
- individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati bo'yicha ma'lumotlar tahlili natijalari asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlar va ularning maqsadli parametrlari bo'yicha (erishilishi rejalashtirilgan) ko'rsatkichlari tizimi;
- qabul qilingan qarorlar bo'yicha ishlab chiqilgan maqsadli parametrlarga erishilishi holati bo'yicha natijalarni nazorat va monitoring qilish natijalari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy holatda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda foydalanilayotgan raqamlashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan O'zbekiston sharoitida mahalliy sport maktablarini modernizatsiyalash, elektron ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va ularni o'zaro integratsiyalash hamda onlayn ta'lim platformalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hisobiga foydalanish holatlari asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston sharoitida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning joriy holati bilan jahondagi yetakchi, jumladan, AQSh, G'arbiy Yevropa, Osiyoning yetakchi mamlakatlari amaliyotlari o'rtasidagi farqli holatlar (3-jadvalga qarang) bu turdagi texnologiyalardan mamlakatda qisman yoki noto'liq ravishda foydalanilayotganligini ko'rsatdi.

Individual sportchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalar: O'zbekiston va xorijiy tajriba qiyosi³

№	Raqamli ta'lim texnologiyalari	Yetakchi xorijiy mamlakatlarda qo'llanilishi	O'zbekistondagi holat	
			Qo'llanish darajasi	Izohlanishi
1	Sensor texnologiyalar (Wearable Devices)	Keng foydalaniladi	Past darajada	Faqat professional sport sohasida qo'llaniladi
2	Video va rasm (Capture Motion) tahlili	Juda yuqori ustuvorlik	O'rta darajada	Ayrim sport federatsiyalari va sportchilar mustaqil ravishda foydalanadi
3	LMS ta'lim platformalari	Juda yuqori ustuvorlik	Past darajada	Tizimli rivojlanish bosqichida
4	Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari	Juda yuqori ustuvorlik	Joriy etish borasida ishlr amalga oshirilmogda	Sinov loyihalari ishlab chiqilmoqda
5	VR / AR simulyator texnologiyalari	O'rta-yuqori darajada foydalaniladi	Mavjud emas	
6	Big Data tahliliy texnologiyalari	Keng foydalaniladi	Mavjud emas	
7	Blokcheyn texnologiyalari	O'rta-yuqori darajada foydalaniladi	Mavjud emas	

Ushbu holat O'zbekiston individual sportchilarini tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilmayotganligini, texnologik ta'minotning qimmatligi, kadrlar yetishmasligi, raqamli infratuzilma va madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi tizimli muammolarni hal etishga ustuvorlik qaratish zaruriyatini oshiradi. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi muammolarning hal etilmasligi ulardan foydalanish usullarining rivojlanishiga quyidagi yo'nalishlarda o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda:

individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdagi texnologik ta'minot tizimi amal qilishidagi uzilishlar, jumladan, ma'naviy eskirgan yoki eskirish bosqichida bo'lgan texnologiyalarning import sifatida olib kirilishi, ularni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning sust kechayotganligi bilan birgalikda, investitsion talab hajmining ortib borayotganligi importga bog'liqlikni tobora kuchaytirib, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirmoqda;

individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yuqori kasbiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlarning yetishmasligi, shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida individual sportchilarni tayyorlash imkoniyati yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha mamlakat oliy ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim dasturlarining ishlab chiqilmaganligi mazkur jarayonlar samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda;

raqamli infratuzilma ta'minoti bo'yicha respublika viloyatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi nomutanosibliklar mamlakat hududlarida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotiga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini cheklamoqda;

nafaqat sportchilar, balki soha mutaxassislari, sport murabbiylari o'rtasida raqamli madaniyatning talab darajasida rivojlanmaganligi sababli individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanilishini tashkil etishdagi turli tushunmovchilik va qarama-qarshiliklarning vujudga kelishi hisobiga sohadagi raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarining ijtimoiy omillari samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Santomier J. Digital transformation: The global sport industry. In Reference module in social sciences. Elsevier. 2024. – pp. 1-7 DOI: 10.1016/B978-0-443-13701-3.00209-7
2. Senkal T., Demir A. The Relationship Between Digital Transformation and Performance

3 Muallif tomonidan tuzilgan



Management in Sports Organizations. International Journal of Innovative Science and Research Technology, Vol. 10, Issue 7, July, 2025. – pp. 1348-1356

3. Jiang H., Liang X., Li S. Analysis of the Development and Application of Digital Twin Technology Empowering Smart Sports. New Sports, Vol. 18, 2023. – pp. 29-31

4. Salman G.G. Use of Digitalization and Social Media in Sports Branding. The Journal of Academic Social Science Studies, Vol. 13, No. 79, 2022. – pp. 451-467

5. Akkaya C. Digital Culture and Esports in a Digitalized Society. Gaziantep University Journal of Social Sciences, Vol. 22 (3), 2023. – pp. 719-735.

6. Chai W., Wang W., Shi H., et al. The Intrinsic Mechanism and Implementation Path of Digital Economy Driving the Supply and Demand Adaptation of Sports Industry. Journal of Shanghai University of Sport, Vol. 47 (10), 2023. – pp. 88-98.

7. Li Ch., Li D., Huang Ch. Innovations in Sports Industry: Trends and Transformations. Psychology of Sport & Exercise, Vol. 75, 2024. – pp. 1-7. DOI: 10.1016/j.psychsport.2024.112416

8. 2025 Digital Trends in the Sport Industry. Executive Summary: Embracing the Digital Future in Sports. N3XT Sports, April, 2025. – 23 pages.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>